

## Xorazm viloyati sharoitida Yasmiqning “Sarbon” va “Darmon” navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi

N.U.Zaribova, UrDU, Biologiya kafedrası dotsenti, qx.f.f.d,

O.Sh.Atajonova, UrDU biologiya yo‘nalishi magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yasmiqning morfologik va bioekologik xususiyatlari haqida, shu bilan birgalikda, Xorazm viloyati sharoitida ekilgan yasmiqning “Sarbon” va “Darmon” navlarini yetishtirish agrotexnologiyasining qiyosiy tahlil natijalari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** “Sarbon”, “Darmon”, tugunak bakteriya, klechatka, juft patsimon, dukkakdoshlar oilasi.

**Аннотация:** В данной статье описаны морфологическая и биоэкологическая характеристика чечевицы, а также результаты сравнительного анализа агротехники выращивания сортов чечевицы «Сарбон» и «Дармон», выращиваемых в Хорезмской области.

**Ключевые слова:** «Сарбон», «Дармон», клубеньковая бактерия, клечатка, двойное перо, семейство бобовых.

**Abstract:** This article describes the morphological and bioecological characteristics of lentils, as well as the results of a comparative analysis of agrotechnology for the cultivation of "Sarbon" and "Darmon" varieties of lentils planted in Khorezm region. **Key words:** "Sarbon", "Darmon", nodule bacterium, clechatka, double feather, legume family.

**Kirish.** Yasmiq ( Lens L ) — dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik, donli, o‘tsimon o‘simlik turkumi. Yasmiqning ildizi o‘qildiz bo‘lib, poyasining uzunligi 25-50 sm. Poyasi asosan tik, ba’zida esa yotib o‘sadi. Bargi murakkab, juft patsimon, uchida jingalaklari bor. Bargchalari oval shaklda. Gullari mayda, pushti, binafsha, ko‘k, ko‘pincha oq, barg qo‘ltiqlarida 2-4 tadan joylashgan, o‘zidan changlanadi. Changchilari 10 dona, bittasi erkin, onaligi boshidan oxirigacha yapaloq shaklda. Mevasi dukkak, urug‘i yumaloq, sariq, pushti, yashil va jigarrang.

Yasmiq o‘simligining ba’zi turlari oziq- ovqat ekini sifatida ham foydalaniladi. Ozuqa sifatida doni, yem-xashak sifatida esa somoni ishlatilinadi. Urug‘i tarkibida 23-32 % oqsil, 0,6-2,1 % yog‘, 47-70 % kraxmal, 2,3-4,4 % kul va 2,4-4,0 % kletchatka bor. Bundan tashqari yasmiq ildizlaridagi tugunak bakteriya orqali havodagi sof azotni o‘zlashtirish xususiyatiga ega. Yasmiqning ko‘plab navlarining agrotexnikasi to‘liq organilmagan. Shuning ushun yasmiqning yangi navlarini

bioekologik xususiyatlarini va agrotexnikasini o`rganish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Material va metodlar.** Tajriba ob'ekti sifatida Yasmiqning ikkita o`rtapishar Sarbon va Darmon navlari tanlab olindi. Navlar 3-qaytariqda dala maydonchalarida o`rganildi, o`simliklar bo`yicha fenologik kuzatuvlar va hisoblash ishlari olib borildi. O`rganilayotgan dala tajribalari qabul qilingan ilmiy uslublar asosida o`tkazildi. Fenologik kuzatuvlar va biometrik o`lchash ishlarini olib borishda «Методы проведения полевых экспериментов» (УзПИТИ, 2007) qo`llanmasida ko`rsatilgan usullardan foydalanildi.

**Natija va munozara.** Tajribalar quyidagi yo`nalishlarda olib borildi: 1-nchi ikkita yasmiq Sarbon va Darmon navlarini uch xil ekish me`yorida 1,0 mln dona, 1,5 mln dona, 2,0 mln dona ekildi va turli xil ma`danli o`g`itlar me`yorida, fosfor 40 kg, fosfor 40 kg va kaliy 50kg, fosfor 60 kg, kaliy 50, fosfor 80 kg, kaliy 50 kg va fosfor 100 kg va kaliy 50 kg miqdorda berildi.

Tajriba dala uslubida, 3 karra takrorlanishda ekildi. Paykal yuzasi 48 kv.m (eni 2.40 m, uzunligi 20 m.), hisobga olingan o`simliklar soni 20 ta, variantlar soni 36 ta. Takrorlar ikki yarusda joylashtirildi. Har bir bo`lak (delyanka)ning boshi va oxirida himoya maydonlari uchun joy qoldiriladi. Gullash- pishish fazalari bu ikki navda o`zgarib borganligi ma`lum bo`ldi. Sarbon navida nazorat variantda gullashdan pishishgacha 32 kun vaqt o`tgan bo`lsa, Darmon navida bu muddat 36 kunni talab qildi. Sarbon navida P<sub>40</sub> kg berilgan variantda gullashdan pishishgacha 35 kun, P<sub>60</sub>K<sub>40</sub> bo`lgan variantda 36 kun, P<sub>80</sub>K<sub>60</sub> kg berilgan variantda 33 va P<sub>100</sub>K<sub>60</sub> berilgan variantda 37 kun muddat kerak bo`ldi.

Ushbu rivojlanish fazasi Darmon navida aniqlab ko`rilganda P<sub>40</sub> kg berilgan variantda gullashdan pishishgacha 37 kun, P<sub>60</sub> K<sub>50</sub> bo`lgan variantda 39 kun, P<sub>80</sub>K<sub>50</sub> kg berilgan variantda 39 va P<sub>100</sub>K<sub>60</sub> berilgan varintda 40 kun muddat kerak bo`ldi. G`unchalash davri "Sarbon" navida o`g`it me`yori oshgan sari 15-20 aprelda kuzatilib, me`yor oshganda bu davr 1-2 kun kechroq kuzatildi. "Darmon" navida g`unchalash davri may oyining boshida kuzatilib, o`g`it me`yori oshganligi evaziga bu davrning o`tishi 2-3 kunga kechikdi. Gullash davri "Sarbon" navida 15-20 mayda kuzatilib, ko`rinishlar bo`yicha farq 1-3 kunni tashkil qildi. "Darmon" navida bu davr may oyining 18-25 sanalariga to`g`ri keldi. Bu navda ham o`g`it me`yorlarning oshishi evaziga davrning o`tishi 2-4 kunga kechikdi. Dukkak hosil bo`lish davri may oyida kuzatildi. "Sarbon" navida bu 5-7 kunlarga, "Darmon" navida esa 7-10 kunlarga to`g`ri keldi.

Ma'dan o'g'it me'yori evaziga "Sarbon" navida davrning o'tishi 2-3 kunga va "Darmon" navida 1-3 kunga kechikdi. Ikkala navda ham o'g'it me'yori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Pishish davri may oyining oxiri va iyun oyining boshlanishida kuzatildi. "Sarbon" navida pishish davri 26-29 may kunlari, "Darmon" navida esa 27 may va birinchi iyunda kuzatildi. Tajriba ma'lumotlaridan yasmiq navlarini rivojlanishi ma'danli o'g'it va nitragin ta'sirida 1-3 kunga kungacha o'zgargani qayd qilindi. Bu ma'lumotlardan ko'rinmoqdaki, yasmiqning "Sarbon" navi "Darmon" naviga qaraganda ertaroq pishib yetilganligi aniqlandi.

**Xulosa.** Har ikkala nav kesimida natijalar qiyosiy tahlil qilinganda quyidagi xulosaga kelindi. Ikkala nav ham bir xil vaqtda ekildi ammo pishish vaqti 1-2 kunga farq qildi, o'g'it me'yorlariga qarab ham o'simlikdagi o'sish fazalarida biroz farq sezildi. Tajriba yillarida olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha Sarbon navida o'suv davri nazorat variantda 70 kun, Darmon navida esa 77 kunni tashkil qildi. P<sub>40</sub> kg berilgan variantda Sarbon navida o'suv davri 75 kun, P<sub>60</sub> K<sub>40</sub> berilgan ma'danli o'g'it me'yorida 74 kun, P<sub>80</sub> K<sub>60</sub> kg bo'lgan me'yorda 73 va oxirgi variantda ham 73 kunda pishib yetilgani ma'lum bo'ldi. Darmon navida bu ko'rsatkichlar nisbatan boshqacha bo'lishiga sabab bu nav o'z biologiyasiga ko'ra o'rtapishar bo'lib Sarbon navidan kech pishib yetilganligi aniqlandi.

Yasmiqning bu navlari yuqori hosildorlik, oqsillilik va yog'lilik darajasi, ozuqa-don qiymati va mahalliy iqlim sharoitlariga moslashuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu navlar dehqonchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va aholi uchun sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yakubjonov O, Tursunov S, Muqimov J "Donchilik" 2009
2. Ataboyeva X, va boshqalar, O'simlikshunoslik. –T.: 2000
3. Oripov R, Xalilov N. O'simlikshunoslik. – T.: 2007
4. Rustamov A.S., Amanova M.E.. " Yasmiq ekinidan yuqori hosil yetishtirishda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar" tavsiyanoma 2019 yil.